



ZARKENT SHEVASIDAGI SO'ZLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI

Turdixojayeva Muattarxon Ismailxuja qizi

ToshDO'TAU "O'zbek filologiyasi" fakulteti

"Folklorshunoslik va dialektologiya" kafedrası II kurs magistranti

muattarxon16@mail.ru

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7885214>

ARTICLE INFO

Received: 24th April 2023

Accepted: 29th April 2023

Online: 30th April 2023

KEY WORDS

Lingvokulturologiya,
dialektologiya, ona tili, sheva,
madaniyat.

ABSTRACT

Maqolada lingvokulturologiya fani hamda dialektologiya fanlarining uzviy bog'liqligi, o'zbek tili shevalaridagi rang-barangligi haqidagi tushunchalar yoritilgan. Mazkur maqolada sheva vakillari nutqidan yozib olingan ayrim so'zlar dialektologik jihatdan tahlilga tortildi. Maqolada Parkent tumani Zarkent qishlog'i sheva leksikasini o'rganish uchun tavsifiy, qiyosiy-tarixiy metodlardan foydalanildi. Shuningdek, shevaga xos so'zlardan o'rta maktab o'quvchilari nutq vaziyatida qay darajada to'g'ri va faol qo'llay bilishi xususida ham bir qator fikrlar berilgan.

Til va madaniyatning o'zaro aloqasi E.Sepir qarashlarida ham ilgari surilgan. U madaniyatni "ma'lum jamiyat qiladigan va o'ylaydigan narsalar" deb ta'riflaydi. Til esa fikrlash tarzi... Tabiiyki, til mazmuni madaniyat bilan bevosita bog'liq¹. Shu tariqa til madaniyatni ifodalovchi voqelashgan "ichki shakl" sifatida, madaniyat esa inson tomonidan voqelikni o'zlashtirish jarayoni sifatida namoyon bo'ladi².

Lingvomadaniyatshunoslik va lingvomamlakatshunoslik kabi sohalarning eng asosiy o'rganish obyektlaridan biri o'rganilayotgan madaniyat va mamlakatga xos bo'lgan milliy realiyalardir. Realিয়া –bu ma'lum bir madaniyatga mansub xalqning maishiy turmushi (tandir, rapida, kigiz), ma'naviy qarashlari (madrasa, so'fi, halol, orif, zakot), tarixi (jadidchilik, xudaychi, yasovul), an'analari, urf-odatlar, san'ati (shashmaqom, mavrigi, xamsachilik) bilan bog'liq bo'lgan real faktlar. Realiyalar milliy va tarixiy kolorit ifodachisi bo'lganligi bois, boshqa tillarda aniq muqobillarga ega emas, shuning uchun ularni boshqa tillarga tarjima qilish tarjimondan alohida yondashuv va mahoratni talab etadi³. Zarkent shevasida dialektal so'zlarning lingvokulturologik xususiyatlarini

o'rganish uchun ushbu hududning urf-odatlar, yashash tarzi, kiyinish uslubi va hokazolar bilan yaqindan tanishish, ular bilan muloqot qilish va lozim bo'lsa, shu kishilar bilan yashash kerak. O'zbek shevalari til nuqtayi nazaridan bir butunlikka, mushtaraklikka ega

¹ Воробьев В.В. Лингвокультурология. –Москва, 2006. –Б.12

² Воробьев В.В. Лингвокультурология. –Москва, 2006. –Б.12

³ Мусаева Ф.Т. Узбек шевалярининг лингвомаданий тадқиқи. -Тошкент. УЗРФА «Фан»нашриёти, 2019-120 б



ekanligi hech birimizga sir emas. Shevalarning kelib chiqishi, ularning turli ko'rinishga, mazmunga egaligi ham xalqning turmush tarzi bilan bevosita ham bilvosita bog'liq.

Mazkur shevaga xos bo'lgan qarindosh-urug'chilikka oid dialektal so'zlarning ayrimlariga tavsif berishga urindik.

Kennoyi [kenna:ji] – kelin oyi – aka, tog'a va amakining turmush o'rto'g'iga murojaat so'zi sifatida foydalaniladi. Ushbu so'z fonetik o'zgarishga uchragan. (adabiy tilda, kelinoyi tarzida qo'llaniladi). So'z o'zagi, unga qo'shimchalar qo'shilishi mumkin, so'z o'zagida fonetik o'zgarish bo'lgan: kelin oyi > kelinoyi > kennoyi⁴.

Tog'o [taya] – tog'a – onaning akasi yoki ukasi. Ushbu so'z fonetik o'zgarishga uchragan. (adabiy tilda, tog'a tarzida qo'llaniladi). Bulardan bilinib turibdiki, sheva so'zlari fonetik va leksik o'zgarishlarga uchrab, fonetik shakli o'zgarib, lug'aviy ma'nosi bo'lgan dialektal ma'nosida jiddiy o'zgarish bo'lishi tabiiy holdir⁵.

O'g'il bola [oyil bälä] – erkak jinsidagi bola. O'g'il bolani urish gunoh deb biladigan Ummatali bu gal o'zini tutolmadi.

Qiz bola [qiz bälä] – ayol jinsidagi bola. Shu yoshga kirib qiz bola bilan birinchi marta kinoga tushishi edi. X.To'xtaboyev. Sariq devni minib.

Bola – [bälä] – 1. Yangi tug'ilgan, hali ko'krakdan, ona bag'ridan ajratilmagan go'dak; chaqaloq. Bola emizmoq. Bolani allalab uxlatmoq. 2. Hali yosh, voyaga yetmagan odam.

Nabira [nevärä] – o'g'il yoki qizning farzandi (boboga, buviga nisbatan). Tolibjonboyning besh o'g'li, uch qizi bor ekan. Ikki o'g'li uylangan, bir qizi erga tekkan, nabiralari ham bor. Oybek. Tanlangan asarlar.

Oyi [aji] – buvi – otaning yoki onaning onasi. Mungli ko'zlari mehrga to'la bu nozik kampir Shukurovga marhum buvisini eslatdi. O.Yoqubov, Diyonat. Bola buvisiga talpindi. "Saodat". Mazkur so'zdan Zarkent shevasi vakillari qaynanalariga murojaat so'zi sifatida foydalanadi. Ba'zi oilalarda bu so'zga –jon lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchasi qo'shiladi. *[Bugun ayim dälägä chiqmasa keräy, chäläjlani yuvib, suv ap qojilä dp ketgänijdi. Hazir kep qasä, suv omäpsilä dp xapä bolädi.]* Z.SH.Rahimboyeva

Apa[apa] – ona – farzandi yoki farzandlari bo'lgan xotin. O'zi tuqqan farzandlar onalariga nisbatan shu so'z bilan murojaat qilishadi. *[mäni äpäm judä qattiqqol. äpämmi Mändän täshqäri jänä ušta bäläsi bor. Män äpämmi jännätlägä älishmiymän.]* F.F.Qo'ziyev.

Apcha [äpçä] – opa – bir otadan tug'ilgan farzandlar ichida o'zidan kichiklarga (ukalarga, singillarga) nisbatan katta qiz; O'zidan katta, ba'zan kichik ayollarga hurmat yuzasidan ularning ismiga qo'shib ishlatiladigan so'z; O'zidan katta, ba'zan kichik ayollarga hurmat bilan murojaat qilish shakli⁶.

Opqi[apaqi] – Yoshi katta ayolga hurmat bilan murojaat qilishda ishlatiladigan so'z. Bu so'z ot so'z turkumiga mansub bo'lib, oppoq sifati va oyi otidan tuzilgan birikmaning bir so'zga birlashuvi bilan yuzaga kelgan⁷. Ba'zi shevalarda bu so'zning opoyi, opog'oyi kabi variantlari mavjud. Zarkent shevasida bu so'z amaki yoki tog'aning ayoliga nisbatan murojaat so'zi

⁴ O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. 1-jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020. – 679 b

⁵ O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. 1-jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020. – 679 b

⁶ O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. 1-jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020. –128-bet

⁷ Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. 1-jild. 225-bet



sifatida qo'llaniladi. [keçaginä ujimizgä apaqim minän dadäm kep ketiştı. ädäm minän bilmijmän nimäläni gäpläşiştı. Apaqim dadäm bir joyga barsä dajim janidä juruvrädi.]

Doda [dadä] –buva –bobo. Otaning yoki onaning otasi. Buvasi ish qilsa, Nigora ko'maklashar, "Oh, oh, ermakkinam, dastyorginam!" –deb xursand bo'lardi buvasi. S.Anorboyev. Oqsoy. Buvamning so'zlari ohista qaynab turgan zilol buloqni eslatardi. "Saodat". Bu so'zning adabiy tildagi muqobili bilan tanishdik. Shevada bu so'zdan nafaqat buva, bobo so'zlarining muqobili sifatida balki otasi yoki onasidan katta bo'lgan, amaki yoki tog'aga murojaat so'zi sifatida foydalaniladi.

Qaynana [qäjnänä] –erning onasi xotiniga nisbatan, xotinning onasi eriga nisbatan. Bu so'z asli qadimgi turkiy tildagi xotinining tug'ishganlari (erga nisbatan), erining tug'ishganlari (xotinga nisbatan) ma'nosini anglatgan **qayin** so'zi bilan xotin kishi o'z tuqqan bolasiga nisbatan ma'nosini anglatgan ana so'zidan tarkib topgan; bu so'zlar eski o'zbek tilida bir so'zga birlashganidan keyin i unlisi talaffuz qilinmay qo'ygan; keyinchalik [a] unlilari [ä] unlilariga almashgan⁸.

Qaynata [qäjnätä] –erning otasi xotiniga nisbatan, xotinning otasi eriga nisbatan. Bu so'z asli qadimgi turkiy tildagi xotinining tug'ishganlari (erga nisbatan), erining tug'ishganlari (xotinga nisbatan) ma'nosini anglatgan **qayin** so'zi bilan erkak kishi o'z bolasiga nisbatan ma'nosini anglatgan ata so'zidan tarkib topgan; bu so'zlar eski o'zbek tilida bir so'zga birlashganidan keyin i unlisi talaffuz qilinmay qo'ygan; keyinchalik [a] unlilari [ä] unlilariga almashgan⁹.

Qaynag'a [qäjnäyä] –erning akasi xotiniga nisbatan, xotinning akasi eriga nisbatan. Bu so'z asli qadimgi turkiy tildagi xotinining tug'ishganlari (erga nisbatan), erining tug'ishganlari (xotinga nisbatan) ma'nosini anglatgan **qayin** so'zi bilan "oldin tug'ilgan o'g'il farzand" ma'nosini anglatuvchi ag'a (aka) so'zidan tarkib topgan; bu so'zlar eski o'zbek tilida bir so'zga birlashganidan keyin i unlisi talaffuz qilinmay qo'ygan; keyinchalik keyinchalik [a] unlilari [ä] unlilariga almashgan¹⁰.

Qayni [qäjni] –erning ukasi xotiniga nisbatan, xotinning ukasi eriga nisbatan. Bu so'z asli qadimgi turkiy tildagi xotinining tug'ishganlari (erga nisbatan), erining tug'ishganlari (xotinga nisbatan) ma'nosini anglatgan **qayin** so'zi bilan "keyin tug'ilgan o'g'il farzand" ma'nosini anglatuvchi ini so'zidan tarkib topgan; bu so'zlar eski o'zbek tilida bir so'zga birlashganidan keyin qayin so'zidagi in tovushlari va ini so'zi boshlanishidagi i unlisi talaffuz qilinmay qo'ygan; so'ngra [a] unlisi [ä] unlisiga almashgan:qayin ini>qayni tarzida¹¹.

Qaynigich [qäjnigiç] – erning opasi xotiniga nisbatan, xotinning opasi eriga nisbatan. Bu so'z asli qadimgi turkiy tildagi xotinining tug'ishganlari (erga nisbatan), erining tug'ishganlari (xotinga nisbatan) ma'nosini anglatgan **qayin** so'zi bilan "akaning xotini", "o'zidan katta yoshdagi ayol" ma'nosini anglatuvchi egachi so'zidan tarkib topgan; keyinchalik bu so'zlar eski o'zbek tilida bir so'zga birlashganidan keyin ikkinchi bo'g'indagi tor unli talaffuz qilinmay

⁸ Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. 1-jild. 509-bet

⁹ Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. 1-jild. 508-bet

¹⁰ Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. 1-jild. 508-bet

¹¹ Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. 1-jild



qo'ygan, e unlisi ä unlisig, birinchi bo'g'indagi a unlisi ham ä unlisiga almashgan: qayniegachi>qaynigich¹².

Balla [bälläri] –kishilarning ayoliga ya'ni rafiqasi haqida so'ralganda qo'llanadi. Misol uchun "qalaysan og'ayni ballaring yaxshimi?", yoki "Rustam og'aynimmi ballari aytti" tarzida faol.

Tog'a [tayä] –asosan tengdosh yigitlar nutqida ko'p qo'llaniladi. Bu so'z yigitlarning o'zaro murojaat so'zi sifatida faol. Ya'ni yaqin do'stlar bir-biriga nisbatan ismini aytish o'rniga aynan shu so'zdan foydalanishadi. Masalan, [tayä ishlärin bovättimi] yoki [tayä ašta korinmadiz] va hokazo.

Ma'lumki, olamning dialektal manzarasi ko'p jihatdan ma'lum sheva bilan birlashgan jamoaning turmush tarziga, istiqomat qilayotgan hududning geografik o'ziga xosligi, ayrica tabiati bilan ham bevosita bog'liq. Ya'ni sheva vakillari uchun kundalik turmushda tez-tez ishlatadigan, murojaat qiladigan narsalar juda muhim, shuning uchun ularni alohida nomlashni ma'qul ko'radilar.

Birgina [apaqi] so'zi xususida fikr bildirsak, Zarkent shevasi vakillari nutqida bu so'zni ayollarga murojaat sifatida ko'rish mumkin. Farg'ona guruh shevalarida esa aynan [apaqi] so'zi erkaklarga murojaat so'zi sifatida ishlatiladi. Bu so'zning etimologiyasiga e'tibor beradigan bo'lsak, har ikki hududda mazkur so'zdan foydalanilishining sababini quyidagicha izohlash mumkin. Kexsa yoshdagi ayollarga va erkaklarga murojaat sifatida, uning oppoqlik belgisi birlamchi xususiyati sanaladi. Chunki ayol yoki erkak keksayib borgan sari, uning sochlariga va soqollariga oq oralaydi. Shuning uchun ham oppoqoyi yoki oppoqdoda so'zlari faol qo'llanadi. Ikki hududdagi turli shevalar haqida fikr bildirgan bo'lsak-da, ularning belgi jihatdan bir-birini to'ldirishi o'zbek tiliga xoslik, milliylik va mentalitet mushtarakligining yaqqol namunasi sanaladi.

Zarkent shevasida faol qo'llanadigan so'zlardan yana bir bu [bälläri] so'zidir. Bu so'zdan erkak kishi o'ziga tanish, o'zidan katta yoki kichik uylangan kishilarning ayoli ya'ni rafiqasi haqida hol-ahvol so'raganda yoki unga qandaydir xabarni yetkazmoqchi bo'lganda foydalanadi. Mazkur so'zni boshqa shevalarda uchratmaymiz. Bu so'z uylangan kishi va uning rafiqasiga hurmat, yana murajaatchining biroz xijolat bo'lganligini anglatadi. Boshqa shevalarda masalan, Yuqori Chirchiq tumani Yangibozor shevasida bu dialektal so'zning o'rniga, [kenejim] yoki [kelin] dialaektal so'zidan foydalaniladi. Har ikki shevada ham o'zbek yigitlariga xos oriyatni, g'ururni va andishani ko'rish mumkin.

References:

1. Ashirboyev Samixon. O'zbek dialektologiyasi. -Toshkent, 2006.-B.5.
2. Ashirboyev Samixon. O'zbek dialektologiyasi. -Toshkent: Nodirabegim, 2021. -B.12.
3. T. J. Enazarov, V. A. Karimjonova, M. S. Ernazarova, SH. S. Mahmadiyev, K. G'. Rixsiyeva O'zbek dialektologiyasi (o'quv qo'llanma). Toshkent, Universitet, 2012
4. Каримов И. Ватан ва халқ мангу қолади. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2010. – Б.123.

¹² Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. 1-jild



5. Телия В. Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – Москва: Школа, Языки русской культуры, 1996. –С. 222.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006. -580 б.
7. Enazarov T. J. O 'zbek dialektologiyasi: nazariya va amaliyot. –Toshkent: Mahalla va oila, 2021. –B.37-38.
8. www.ziynet.uz